

MAHKUMLARNING HUQUQIY MAQOMI: HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

Bekbergenova Dilrabo Ibodullayevna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

dilrabobekbergenova4@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning huquqiy maqomi, ularning asosiy huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Jinoyat-ijroiya kodeksi asosida belgilangan huquqiy kafolatlar tahlil qilinadi. Mahkumning huquqiy maqomi shuni anglatadiki, u jinoyat sodir etganligi uchun jazoga hukm qilingan bo'lsa-da, fuqaro va inson sifatidagi maqomini to'liq yo'qotmaydi. Sud hukmi orqali unga faqat ayrim huquqlar (shaxsiy erkinlik, erkin harakatlanish, yashash joyini tanlash kabi) vaqtincha yoki qisman cheklanadi, ammo uning insoniy qadr-qimmati, shaxsiy sha'ni, daxlsizligi va asosiy tabiiy huquqlari hech qachon bekor bo'lmaydi. Mahkumga nisbatan jismoniy yoki ruhiy qiynoq qo'llash, kamsitish, g'ayriinsoniy muomala qilish qat'iy taqiqlanadi; u himoyasiz shaxs emas, balki davlat himoyasi ostidagi, maxsus yuridik rejimga ega bo'lgan shaxs hisoblanadi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается правовой статус осужденных, их основные права и обязанности, а также правовые гарантии, установленные Конституцией и Уголовно-исполнительным кодексом Республики Узбекистан. Правовой статус осуждённого означает, что, хотя он был приговорён к наказанию за совершение преступления, он не утрачивает полностью свой статус гражданина и человека. На основании судебного приговора ограничиваются только некоторые его права (личная свобода, свобода передвижения, выбор места жительства) — временно или частично, но человеческое достоинство, честь личности, неприкосновенность и основные естественные права никогда не отменяются. В отношении осуждённого строго запрещено применение физических или психологических пыток, дискриминация и бесчеловечное обращение; он не является беззащитным лицом, а считается лицом, находящимся под защитой государства и обладающим особым юридическим режимом.*

Annotation: *This article analyzes the legal status of convicted persons, their main rights and obligations, as well as the legal guarantees established by the Constitution and the Criminal-Executive Code of the Republic of Uzbekistan. The legal status of a convicted person means that although the person has been sentenced to punishment for committing a crime, they do not fully lose their status as a citizen and a human being. By the court's final judgment, only certain rights (personal liberty, freedom of movement, choice of residence) may be restricted temporarily or partially, but human dignity, personal honor, inviolability, and fundamental natural rights are never annulled. Any use of physical or psychological torture, discrimination, or inhuman treatment against the convicted person is strictly prohibited; they*

are not considered an unprotected individual, but rather a person under state protection, subject to a special legal regime.

Kalit soʻzlar: *Mahkum, ozodlikdan mahrum etish, huquqiy maqom, inson huquqlari, majburiyat, javobgarlik.*

Ключевые слова: *Осужденный, лишение свободы, правовой статус, права человека, обязанности, ответственность.*

Keywords: *Convict, deprivation of liberty, legal status, human rights, obligation, responsibility.*

Kirish.

Oʻzbekiston Respublikasida mahkumlarning huquqiy maqomi insonparvarlik, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillariga asoslanadi. Mahkumlar, JIK va boshqa qonunlarda belgilangan istisno hamda cheklashlar inobatga olingan holda, Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan huquqlar, erkinliklarga ega boʻladilar va majburiyatlarni bajaradilar. Mahkum ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan huquqlar, erkinliklarga ega boʻlishlari va majburiyatlarni bajarishlari mumkin.¹

Bu maqom shuningdek, mahkumning doimiy huquqiy himoyaga ega ekanligini bildiradi. Qonun buzilishi holatlariga qarshi u jazoni ijro etish muassasasi maʼmuriyatiga, prokuraturaga, sudga, Ombudsmanga, boshqa davlat organlari yoki xalqaro inson huquqlari institutlariga shikoyat qilish, ariza va murojaat yuborish huquqini saqlab qoladi. Demak, mahkumning maqomi — bu huquqlari qonuniy asosda cheklangan, lekin himoyalaniish imkoniyatlari toʻliq saqlangan shaxsning yuridik holati boʻlib, u insonparvarlik, adolat, tenglik va qonuniylik tamoyillari bilan kafolatlanadi.

Mahkumlarning huquqlari va majburiyatlari muayyan jazo turini ijro etish tartibi va shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Konstitutsiyaning 13-moddasiga muvofiq, inson, uning hayoti, erkinligi va shaʼni oliy qadriyat hisoblanadi. Shu sababli, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar ham jamiyat aʼzolari sifatida muayyan huquq va majburiyatlarga ega. Jinoyatni sodir etgani uchun sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxs. Oʻzbekistonda Mahkumlarga nisbatan quyidagi jazo choralari qoʻllanishi mumkin: jarima; muayyan huquqdan yoki biror xil faoliyat bilan shugʻullanishdan mahrum qilish; axloq tuzatish ishlari; xizmat boʻyicha cheklash; qamoq; institutizomiy qismga joʻnatish; ozodlikdan mahrum qilish; oʻlim jazosi. Mahkum jazoni sudning hukmi kuchga kirganidan soʻng oʻtaydi. Baʼzan Mahkum aybdor boʻlsada, unga jazo tayinlanmasligi yoki uni oʻtashdan ozod etilishi mumkin

Asosiy qism.

- 2019-yil 15-martda Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Mahkumlarning hamda qamoqda saqlanayotgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlari takomillashtirilishi” toʻgʻrisidagi qonunni imzoladi.

- Ushbu qonun bilan mahkumlar uchun yangi huquqiy mexanizmlar joriy qilinadi: Ombudsman (Inson huquqlari bo'yicha vakil) va Bolalar Ombudsmani orqali murojaat qilish huquqi kengaytirildi.

- Sudlangan va “og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar” sodir etgan mahkumlarga referendum va saylovda ishtirok etish huquqi berilmoqda, agar qonun va sud hukmi bunga ruxsat bersa.³

Ushbu maqola normativ-huquqiy tahlil, taqqoslama va tizimli yondashuv usullari asosida tayyorlandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-ijroiya kodeksi va xalqaro huquq normalari (xususan, BMTning Mahkumlar bilan muomala qilish minimal qoidalari) asosiy manba sifatida tahlil qilindi.

Monitoring va xalqaro huquqiy organlar bilan ishlash.

- Xabarlariga ko‘ra, Ombudsman va jamoatchilik vakillari bilan birga mahkumlar muassasalariga muntazam monitoring tashriflari amalga oshirilmoqda⁴.

Monitoring - jazoni o‘tayotgan mahkumlarning qanday sharoitda yashayotgani, ularning huquqlari hurmat qilinyaptimi, kamsitish yoki qonun buzilishi yo‘qmi degan masalalarni doimiy kuzatish va tekshirish jarayoni.

Monitoringning asosiy yo‘nalishlari:

- Yashash sharoitlari (ovqat, yotoq joyi, gigiyena, kiyim-kechak, toza suv)
- Tibbiy xizmat sifati va dori vositalariga erkin kirish
- Qiynoq va zo‘ravonlik holatlarining yo‘qligi
- Mehnatga jalb etishning qonuniyligi (majburiy mehnatga yo‘l qo‘yilmasligi)
- Ruhiy holat va psixologik yordam mavjudligi
- Ta‘lim, diniy ibodat va axborot olish erkinligi
- Oila va advokat bilan aloqa qilish imkoniyatlari
- Intizomiy jazolar to‘g‘ri qo‘llanilishi
- Ayollar, voyaga yetmaganlar, nogironlar uchun alohida sharoitlar

Monitoringni kimlar amalga oshiradi?

- Jazoni ijro etish muassasasi ichki nazorat bo‘limi
- Prokuratura nazorati
- Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)
- Milliy preventiv mexanizm (qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha monitoring guruhi)
- Jamoatchilik kengashlari va NNTlar
- OAV (ommaviy axborot vositalari – qonunda ruxsat etilgan doirada)
- Xalqaro monitoring missiyalari (agar davlat tomonidan ruxsat berilsa)

Xalqaro organlar bilan ishlash.

Mahkumlar huquqlari nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro shartnomalar va xalqaro nazorat mexanizmlari bilan ham himoya qilinadi. Davlat jazoni ijro etish tizimida xalqaro organlar bilan hamkorlik qiladi.

Qaysi xalqaro organlar bilan ishlanadi?

- BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashi
- BMT Qiynoqlarga qarshi Qo'mitasi (CAT)
- Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha qo'mita (ICCPR)
- Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi (ICRC)
- Yevropa Ittifoqi, OSCE, UNODC, OHCHR kabi humanitar va huquqiy institutlar

• Inson huquqlari bo'yicha maxsus ma'ruzachilar (BMT Special Rapporteurs) O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda inson huquqlariga oid 70 dan ortiq ko'p tomonlama shartnomalarga qo'shilgan. Bundan tashqari BMT tomonidan ushbu sohada qilingan 10 ta eng asosiy xalqaro shartnoma ishtirokchisiga aylangan.

Natijalar.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 10-moddasiga binoan, mahkumlar quyidagi huquqlarga ega: 1) hayoti va sog'lig'ining himoya qilinishiga; 2) mehnat qilish va dam olish huquqiga; 3) tibbiy yordam olishga; 4) o'qish va kasbiy tayyorgarlikdan o'tish huquqiga; 5) shaxsiy xavfsizlikni ta'minlashga. Bundan tashqari, mahkumlar o'z oilasi bilan aloqa qilish, diniy e'tiqodlarini amalga oshirish va huquqlarining buzilishi holatlarida sudga murojaat qilish imkoniyatiga ham egadirlar. Mahkumlarning majburiyatlari esa intizomga rioya etish, mehnatga jalb etilish va jazoni ijro etish tartib-qoidalariga amal qilishni o'z ichiga oladi.

Muhokama .

Mahkumlarning huquqiy maqomini belgilashda inson huquqlarining kafolatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat jazosi shaxsni insoniy qadriyatidan mahrum etmasligi lozim. Bu masala xalqaro huquq normalarida ham o'z aksini topgan. Amaliyotda ayrim hollarda mahkumlarning huquqlari to'liq ta'minlanmasligi, ularning tibbiy xizmatdan foydalanishida yoki o'qish imkoniyatida cheklovlar mavjudligi kuzatiladi. Shu bois, mahkumlar bilan munosabatda qonun ustuvorligini ta'minlash va ularning huquqlarini kafolatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak. Hamkorlikning amaliy shakllari:

- Mahkumlar sharoiti haqida hisobotlar tayyorlash va taqdim etish
- Xalqaro qo'mitalarning tavsiyalarini bajarish
- Trening va seminarlar o'tkazish (xodimlar uchun)
- Qiynoq, kamsitish va huquq buzilishining oldini olish bo'yicha dasturlar
- Mahkumlarni rehabilitatsiya qilish va jamiyatga qaytarish bo'yicha loyihalar
- Qamoq tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish
- Xalqaro ekspertlar tashrifini tashkillashtirish va kuzatuvlarga ruxsat berish
- Murojaat qilinganida, xalqaro organlarga javob va ma'lumot yuborish

Muhim xalqaro standartlar (umumiy mazmun)

- Nelson Mandela qoidalari (BMT Mahbuslarga muomala bo'yicha minimal standartlar)
- Bangkok qoidalari (ayol mahkumlar bilan ishlash)

- Beijing qoidalari, Havana qoidalari (voyaga yetmaganlar)
- Qiynoqlarga to'liq taqiq (CAT Konvensiyasi)

Davlat organlari monitoring natijalarini xalqaro standartlar bilan solishtiradi, tavsiyalarni milliy tizimga joriy etadi, ularning ijrosini kuzatadi va tegishli choralar ko'radi.

Xulosa .

Xulosa qilib aytganda, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning huquqiy maqomi davlatning insonparvarlik darajasini ifodalaydi. Ularning huquq va erkinliklari Konstitutsiya hamda xalqaro standartlar asosida himoyalaniishi zarur. Jazoni ijro etish muassasalarida ta'lim, tibbiyot va psixologik yordam tizimini yanada takomillashtirish orqali mahkumlarning jamiyatga qaytishiga ko'mak berish mumkin.

Monitoring mahkumlarning huquqlari va turmush sharoitlarini kuzatib, baholab borish bo'lsa, xalqaro organlar bilan ishlash - ularning huquqlarini global standartlar darajasida himoya qilish, hisobot va tavsiyalar orqali hamkorlik qilish jarayonidir. Shavkat Mirziyoyevning yangi Konstitutsiyaga oid yondashuvida shunday fikr bor: "Bir jinoyat uchun butun avlod javob berishi, uning qarindoshlari huquqlari cheklanishi mumkin emas. Bu degani, sudlanganlik faqatgina aybdor shaxsga ta'sir qilishi kerak, uning oilasiga avtomatik ravishda huquqiy oqibatlarni yuklash noto'g'ri, deydi Prezident.⁶

Bu nafaqat inson huquqlarini ta'minlash, balki retsidiv jinoyatchilikning oldini olishga ham xizmat qiladi. Qonuniy oqibatlar va oilaga adolatsizlikka qarshi xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 13- 26-27-44- moddalar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeks 9-10–16-moddalar. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 42–45-moddalar: Xalqaro huquqiy manbalar (UDHR, 1948) 5-10-modda, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt 7-10-modda Mahkumlarga nisbatan muomala qilish minimal qoidalari: Mahkumlarning huquqlari, majburiyatlari, mehnat, ta'lim va tibbiy xizmat kafolatlari.

Ilmiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlar. Abdullaev S., "Jinoyat-ijroiya huquqi asoslari", Toshkent, 2018.. Karimov T., "Inson huquqlari va mahkumlar huquqi", Toshkent, 2020. Rustamov A., "Jinoyat va jazoni ijro etish tizimi", Toshkent, 2019. Xalqaro ilmiy maqolalar va BMT huquqiy tavsiyalarini o'rganish (2015–2023)

-
1. *2019-2025-Madad muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti*
 2. *G'afur Abdumajidov. [tahrir | manbasini tahrirlash ↑ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil*
 3. *Otabek Matnazarov muallifligi kun.uz saytidan.*

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Mahkumlarning hamda qamoqda saqlanayotgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlari takomillashtirilishi" to'g'risidagi qonun <https://yuz.uz/uz/news/mahkumlar-va-qamoqda-saqlanayotgan-shaxslarning-huquqlarini-himoya-qilish-milliy-qonunchilik-va-xalqaro-amaliyot>.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 5-may, PF-5434-son.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2022-yil 20-iyundagi Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda